

## VOLEYBOLCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH METODIKASI

**Raximova Gulmira Qambul qizi**

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tuman, 20-maktab

E-mail: [graximova773@gmail.com](mailto:graximova773@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda voleybolchilarni psixologik jihatdan tayyorlash uslublari, predmetlari va metodikalari o'r ganiladi.

**Kalit so'zlar:** ong, iroda, psixika, shaxsiy tayyorgarlik, adaptatsiya, texnika, taktika, xotira,

**Рахимова Гулмира Камбул қизи**

Хоразм вилояти Қўшқўпир тумани, 20-мактаб

E-mail: [graximova773@gmail.com](mailto:graximova773@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

В данной тезисе изучаются методы, предметы и методы подготовки волейболистов.

**Ключевые слова:** разум, воля, психика, личная подготовка, адаптация, техника, тактика, память, темперамент, психическая подготовка

### KIRISH

Psixologik tayyorarlik uzoq muddatli pedagogik jarayon bo'lib, bunda psixik sifatlar nafaqat mashg'ulot va musoboqa jarayonlarida o'z holicha shakillanishi lozim, balki ular maxsus uslub va vositalar(mashqlar) yordamida alohida takomillashtirilishi zarur. Psixologik tayyorgarlikning bosh maqsadi muhim psixik sifatlar xotira, diqqat, hissiyot, tafakkur, ong, iroda, ko'rish kengligi va chuqurligi kabi xislatlarni mustaqil mashq qildirishdan iborat bo'lishi lozim. Bu borada shug'ullanuvchilarda matonat, shijoat, qat'iyatlik, "makkorlik" va ixtirochilik fazilatlarini sayqal toptirish darkor. Binobarin, ko'p yillik sport trenirovki jarayonida psixologik sifatlar va qobiliyatlarini shakillantirish masalasi boshqa tayyorgarlik turlari kabi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Voleybol musoboqlariga tayyorgarlik ko'rish va ishtirok etish yosh sportchilarni sotsializatsiya qilishning kuchli vositasi va o'zini tutishga turki beradigan muhim omildir. Chunki bu o'yin jamoaviy o'yin bo'lganligi sababli aynan har bir o'yinchining xatti-harakati butun jamoaga o'z ta'sirini o'tkazadi.

**Dolzarbligi.** Valeybolchilarni tayyorlash amaliyotida psixologik tayyorgarlik quyidagi ikki yo‘nalishda olib boriladi:

- umumiyl psixologik tayyorgarlik;
- musobaqaga maxsus psixologik tayyorgarlik;

Sportchilarni valeybol musoboqalariga tayyorlashda shaxsiy tayyorgarlikni ham, jamoaviy tayyorgarlikni ham hisobga olish kerak, sportchilar o‘rtasida yaqin hamkorlik zarur.

Shaxslararo salbiy va hatto neytral munosabatlarning paydo bo‘lishi, sportchining tanlagan faoliyati bilan shug‘ullanishni to‘xtatishiga olib kelishi mumkin.

Valeybolchining psixologik tayyorgarligi murabbiy tomonidan adaptatsiya orqali amalga oshiriladi. Bu ikki usulda amalga oshiraladi:

1. Sportchiga texnik shartlarni o‘rgatadigan universal amaliyot;
2. Og‘zaki mashg‘ulotlar yordamida sportchini start oldi yoki raqobat sharoitida o‘zini qulay his qilishga o‘rgatish. Buning yordamida sportchi salbiy holatlarga dosh bera oladi.

Murabbiy psixologik ta’sir sportchining intellektual sohasi va hissiy muhitiga ta’sir qilishini yodda tutishi muhimdir. Sportchining individual psixologik qobiliyatları hisobga olinmasa, hech qanday jismoniy mashqlar, mashg‘ulot usullari kerakli natijaga olib kelmaydi. Sportchi va murabbiy psixologik tayyorgarlikning individual masalalari ustida ishlaganda, ikkinchisi uchun sportchining motivatsiyaga tayanishi muhimdir. Shaxsiy mashg‘ulotlar, turli masalalar bo‘yicha sportchilar bilan ishlash sportchilarni musoboqaga psixologik tayyorlashning samarali usuli hisoblanadi. Undan foylanganda sportchining shaxsiy qobiliyatini esga olish va unga individual yondashuvni izlash muhimdir. Shu boisdan, voleybolchilarning musoboqaga psixologik tayyorgarligi juda muxim omildir.

Valeybolchining psixologik tayyorgarligi uchun birinchi va juda muhim qadam bu sportchining individual psixologik xususiyatlarini tan olishdir. Ular quyidagi komponentlar bilan ifodalananadi:


- shaxsga yo‘naltirilganlik: qiziqish, ishonch, vatanparvarlik, hissiyotlar-quvonch, qayg‘u;
- psixologik rivojlanish: asab tizimining xususiyatlari, tempramenti, psixologik xususiyatlari;
- sportchida namoyon bo‘ladigan hissiyotlar va sport fazilatlari: intizom, birdamlik, faollik, yaxshi kayfiyat, o‘z pozitsiyasini namoyon bo‘lishi, murabbiyiga va so‘zlarga bo‘lgan munosabat.

Psixolog olim Z. Myuller ayrim risola va maqolalarida xalqaro sport musoboqalarida sportchilarning qoniqarsiz ko‘rsatkichlari faqat ularning jismoniy, texnik yoki taktik tayyorgarligigagina bog‘liq bo‘lmasdan, balki ularning

musoboqadan oldingi ruhiy tayyorgarlik holatiga ham bog‘liq ekanligini takidlagan. Sport amaliyotida bo‘lajak musoboqalarga psixologik jihatdan alohida tayyorgarlik ko‘rgan sportchilarning ko‘pincha g‘alaba qozonishi ilmiy isbotlangan. Demak, sport mutaxassislari va murabbiylari sportchilarni musoboqaga psixologik jihatdan tayyorlashga alohida etibor berishlari maqsadga muofiqdir. Valeybolchilarni musoboqaga maxsus psixologik tayyorlashni quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Sportchilarga raqibi va bo‘lajak musobaqalarning shart-sharoitlari haqida yetarlicha ma’lumotlar berib borish;
2. Sport mashg‘ulotlari va musoboqalar haqida olingan ma’lumotlarni tekshirib ko‘rish,ishonchlik darajasini aniqlash, musoboqalarning boshlanish vaqtini yoki kutilmagan o‘zgarishlarning alohida sportchilar yoki komandaga g‘alaba keltirish imkoniyatlarini o‘rganish;
3. Sportchilarga musoboqada qatnashishdan ko‘zlangan maqsad va vazifalarni aniq belgilab olishlari haqida ko‘rsatmalar berish;
4. Sportchining bo‘lajak musoboqa jarayonidagi faoliyatini rejalshtirish, aqliy sifatlarini o‘stirishga e’tibor berish,musoboqaga taktik va tehnik jihatdan ruhiy tayyorgarligini takomillashtirish;
5. Sportchini musoboqa boshlanishida ruhiy ko‘tarinkilikka, asab tizimi faoliyatini boshqarishga, ruhan charchamaslikka odatlantirish va musoboqa jarayonida yanada faol harakat qilishga erishishga undash.

### **Musobaqaoldi vaziyatlariga xos ruhiy holatlar**



Ma'lumki, har bir sportchi musoboqalarda ancha barvaqt va musoboqa oldi vaziyatlarda mahorati va tajribasidan qat'iy nazar turli hil psixologik holatlar(lixoradka- talvasaga tushish, apatiya- tushkunlikka tushish,jangovor holat, hayajonlanish) ga duchor bo'ladi.Agar o'yinchi va jamoa uchun bo'lajak raqibning o'yin va psixologik modeli yaxshi, batafsil tanish bo'lmasa, salbiy psixologik hissiyotlar kuchayishi, hatto o'zi-o'zini boshqara olmaslikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun musoboqa oldi mashg'ulotlarida bo'lajak raqibning barcha imkoniyatlari, shu jumladan, uning psixologik imkoniyatlari puxta o'r ganiladi. Bunda video-filmalar, "sport razvedkasi" taqdim etgan ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

### XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, psixologik tayyorgarlikning bosh maqsadi muhim psixik sifatlar, xotira, diqat, tafakkur, matonat, ko'rish kengligi va chiqurligi kabi xislatlarni mustaqil mashq qildirishdan iborat bo'lishi lozim. Uni ijro etishda psixologik tayyorgarlik juda muhimdir. Psixologik tayyorgarlik uzoq muddatli pedagogik jarayon bo'lib, bunda psixik sifatlar nafaqat mashg'ulot va musoboqa jarayonlarida o'z holicha shakllanishi lozim, balki ular maxsus uslub va vositalar yordamida alohida takomillashtirilishi zarur. Shu bilan birga, murabbiy uchun ham shaxsiy, ham jamoaviy tayyorgarlikni hisobga olish muhimdir, sportchilar o'rtasida yaqin hamkorlik zarur. Yaxshi shaxslararo munosabatlar sportchining psixologik tayyorgarligini oshirishga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun (yangi tahriri) 2015-yil 5-sentabr Xalq so'zi gazetasi 174-soni
2. J.M.Shukrullayev " Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi (Voleybol) O'quv qo'llanma Toshkent 2022 "YANGI CHIRCHIQ BOOK" 109-114 bet.
3. Pulatov.A.A Valeybol nazariyasi va uslubiyati.; Darslik T.: O'zDJST 2011- 280 b
4. O' Matnazarov " Sportchilarni tayyorlashning psixologik va pedagogik asoslari" O'quv- uslubiy qo'llanma Urganch 2014 18-20 bet.
5. T.S. Usmonxo'jayev " Jismoniy tarbiya" 5-6 "O'qituvchi" nashr 2003 130-134 bet
6. Masharipov.F.T voleybol mashg'ulotlarini olib borish va boshqarishning pedagogik asoslari. O'quv uslubiy qo'llanma. Urganch 2012 72-b